



## Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi


# QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

2023-YILNING  
YANVAR-IYUN OYLARIDA

**Dastlabki ma'lumotlar**

**2023- yil yanvar-iyun**

Bugungi kunda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. Savdo va transportdan tortib moliyalashtirish, sug'urtalash va har xil turdag'i vositachilikga qadar keng faoliyat doirasini qamrab oladi. Aynan shu sektor iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda band bo'lganlar soni bo'yicha iqtisodiyotning asosiy qismini tashkil qildi.



Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-iyun



**Xizmatlar sohasi** bu – korxonalar, tash-kilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **5 794,6 mlrd. so'mga** yetdi. Uning nominal hajmi **989,7 mlrd. so'mga** oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **109,6 %** ni tashkil etdi.

## Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

**4 804,9 mlrd.  
so'm**

**116,2 %**



**O'sish sur'ati**

**Xizmatlar hajmi**

**2022- y. Yanvar-iyun**

**989,7 mlrd.  
so'mga**



**Hajmning  
o'sishi**

**5 794,6 mlrd.  
so'm**



**Xizmatlar hajmi**

**2023- y. Yanvar-iyun**

**109,6 %**



**O'sish sur'ati**

**Dastlabki ma'lumotlar**


**2023- yil yanvar-iyun**

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-iyun oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>5 794,6</b>	<b>109,6</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	328,2	121,6
Moliyaviy xizmatlar	1 387,8	119,2
Transport xizmatlari	1 415,0	103,2
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	699,3	103,3
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	156,1	103,3
Savdo xizmatlari	1 229,0	109,2
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	130,2	105,3
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	300,8	108,9
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	70,7	108,2
Ijara xizmatlari	102,3	99,2
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	171,4	104,3
Shaxsiy xizmatlar	231,9	106,4
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	80,4	108,7
Boshqa xizmatlar	190,8	104,7

*Dastlabki ma'lumotlar*

*2023- yil yanvar-iyun*

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi, % da**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni transport xizmatlari egallaydi. 2023- yilning yanvar-iyun oylarida bu xizmatlarning ulushi **24,4** % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar moliyaviy xizmatlar (**23,9** %), savdo xizmatlari (**21,2** %), shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**5,7** %) bo'yicha qayd etildi.

## *Dastlabki ma'lumotlar*

*2023- yil yanvar-iyun*

Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmida unchalik katta bo'limgan o'sish qayd etildi, ularning ulushi **1,2 %** ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-iyun oylarida transport xizmatlari umumiyligi hajmning **29,8 %** ini tashkil etgan. 2022- yilning shu davrida sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar ulushi ham eng kichik ko'rsatgichga ega bo'lgan – **1,3 %**.

Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi.

Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.




2023- yilning yanvar-iyun oylarida yuqori o'sish aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (**21,6 %**), moliya xizmatlarida (**19,2 %**), savdo xizmatlari (**9,2 %**), ta'lim sohasidagi xizmatlar (**8,9 %**), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarda (**8,7 %**), qayd etildi.

Ijara xizmatlari hajmi (**0,8 %** ga) pasayishi qayd etildi.

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-iyun

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlarini taqqoslash, % da**



**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-iyun oylarida transport xizmatlari yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – **29,8 %**. Ta'lim sohasidagi xizmatlar o'sish sur'atlarida pasayish kuzatilgan – **6,4 %**.

*Dastlabki ma'lumotlar*

*2023- yil yanvar-iyun*



**Savdo** bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini iste'molchiga yetkazib berishdek zarur vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmi savdo xizmatlarining ulushi **21,2 %** ni tashkil etib, bu **1229,0** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-iyun oylarida ularning hajmi **1008,9** mlrd. so'mga yoki umumiylajmi hajmning **21,0 %** iga to'g'ri kelgan.

## **Savdo xizmatlari**



Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-iyun

2023- yilning o'tgan davrida chakana savdoning ulushi umumiyl savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtadan uch qismini, aniqrog'i, **78,7 %** ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida ulgurji savdo xizmatlari ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) **13,1 %** ga yetdi. Savdo xizmatlari tarkibida eng kam hajmni avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi (shu jumladan, ularni ta'mirlash) bo'yicha xizmatlar ulushi (**8,2 %**) tashkil etdi.

## Savdo xizmatlarining tarkibi (2023- yilning yanvar-iyun oylarida)



*Dastlabki ma'lumotlar*

*2023- yil yanvar-iyun*



## **Moliyaviy xizmatlar hajmi** – moliyaviy vositachilik

hisobidan olingen foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

### **Moliyaviy xizmatlar (2023- yil yanvar-iyun oylarida)**

2023- yilning yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **1387,8** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-iyun oylarida ularning hajmi **1060,7** mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2023- yilning o'tgan davrida ularning umumiylar hajmidagi ulushi **23,9 %** ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-iyun oylarida ularning ulushi **22,1 %** ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **327,1** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **19,2 %** ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-iyun oylarida ularning o'sish sur'ati **128,5 %** ni tashkil etgan.



## *Dastlabki ma'lumotlar*

## *2023- yil yanvar-iyun*

Moliyaviy xizmatlar umumi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **88,0 %** ni tashkil etdi.


2023- yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **9,7 %** oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumi hajmning **2,3 %** ini tashkil etdi.

### **Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2023- yil yanvar-iyun oylarida)**

**Sug'urta va nafaqa  
ta'minoti bo'yicha  
xizmatlardan tashqari  
moliyaviy xizmatlar**

**Yordamchi  
moliyaviy  
faoliyat**



**Sug'urta  
bo'yicha  
xizmatlar**

**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlar umumi hajmining **81,4 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarining ulushi **16,3 %** ga to'g'ri kelgan. Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **2,3 %**.

**Dastlabki ma'lumotlar**

**2023- yil yanvar-iyun**



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekomunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

### **Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari**

**2022- y. Yanvar-iyun**

**2023- y. Yanvar-iyun**

**265,6**

**118,7**

**5,5**

**Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm**

**O'sish sur'ati,  
% da**

**Jami hajmdagi  
ulushi, % da**

**328,2**

**121,6**

**5,7**


*Dastlabki ma'lumotlar*

*2023- yil yanvar-iyun*


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2023- yilning yanvar-iyun oylarida ularning ulushi **93,4 %** ni tashkil etdi.

## **Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da**

**2022-y. yanvar-iyun**



**2023-y. yanvar-iyun**



 **Telekommunikatsiya xizmatlari**

 **Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari**

 **Kompyuter dasturlashtirish xizmatlari**

 **Noshirlik xizmatlari**

**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-iyun oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **92,6 %** ni tashkil etgan.

*Dastlabki ma'lumotlar*

*2023- yil yanvar-iyun*



Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan **ta'lif va fan sohasini** rivojlantirish – uzlusiz ta'lif tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lif xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

## **Ta'lif sohasidagi xizmatlar**

**2023- y. yanvar-iyun**

**108,9 %**

O'tgan yilga  
nisbatan o'sish  
sur'atlari

**300,8  
mlrd. so'm**

**5,2 %**

Ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari  
hajmi

Umumi  
hajmdagi ulushi

**93,6 %**

**2022- y. yanvar-iyun**

**244,0  
mlrd. so'm**

**5,1 %**

2023- yilning yanvar-iyun oylarida ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi **300,8** mlrd. so'mga yetdi yoki bozor xizmatlari umumi hajmining **5,2 %** ini tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati **108,9 %** ni tashkil etdi.

*Dastlabki ma'lumotlar*


*2023- yil yanvar-iyun*



**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatolo-giya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetolo-giya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

## **Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar**

**2022- y.  
Yanvar-iyun**



**2023- y.  
Yanvar-iyun**

**Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm**

**Xizmatlar jami hajmidagi ulushi, % da**

**O'sish sur'ati, % da**

*Dastlabki ma'lumotlar*

*2023- yil yanvar-iyun*



**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatalgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

## **Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar**

**123,1**

Xizmatlar  
hajmi, mlrd.  
so'm

**103,7**

O'sish sur'ati, % da

**2,6**

Xizmatlar jami  
hajmidagi ulushi,  
% da

**2022- y.  
Yanvar-iyun**

**156,1**

**103,3**

**2,7**

**2023- y.  
Yanvar-iyun**


**Dastlabki ma'lumotlar**

**2023- yil yanvar-iyun**

2022-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi ko'rib chiqilayotgan davrda **33,0** mlrd. so'mga ko'paydi.


### **Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da**

**2022- y.  
yanvar-  
iyun**



Oziq-ovqat va ichimliklar  
bilan ta'minlash bo'yicha  
xizmatlar

**2023- y.  
yanvar-  
iyun**



**Yashash bo'yicha  
xizmatlar**

2023- yilning yanvar-iyun oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **84,3** % bilan ustunlik qildi.

**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-iyun oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **85,1** % ni tashkil etgan.

**Dastlabki ma'lumotlar**

**2023- yil yanvar-iyun**

<b>Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-iyun oylarida)</b>	<b>Hajmi, mlrd. so'm</b>	<b>O'sish sur'ati, % da</b>	
		<b>2023- y.</b>	<b>2022- y.</b>
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>5 794,6</b>	<b>109,6</b>	<b>116,2</b>
Nukus sh.	2 398,7	109,0	110,3
tumanlar:			
Amudaryo	311,4	118,8	112,6
Beruniy	301,0	114,4	111,3
Bo'zatov	31,5	110,0	114,7
Qorao'zak	96,8	113,9	117,8
Kegeyli	110,5	110,2	114,1
Qo'ng'irot	846,6	102,8	152,6
Qonliko'l	82,4	112,5	115,0
Mo'ynoq	68,3	111,6	114,3
Nukus t.	123,6	111,8	110,3
Taxiatosh	148,4	117,5	110,1
Taxtako'pir	84,1	109,6	116,5
To'rtko'l	431,1	109,7	111,6
Xo'jayli	254,6	109,0	111,2
Chimboy	171,6	108,7	113,0
Shumanay	83,1	119,6	110,8
Ellikqal'a	250,9	114,3	111,5

**Dastlabki ma'lumotlar**

**2023- yil yanvar-iyun**



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilonan foydalanishiga bog'liqdirdir.

**Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da  
(2023- yil yanvar-iyun oylarida)**



Xizmatlar sohasining eng past ko'rsatkichlari Bo'zatov tumanida – 0,5 % (2022- yilning yanvar-iyun oylarida – 0,5 %) qayd etildi.

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-iyun



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

## Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

### Xizmatlar hajmi

2924,4  
ming so'm



### Hajmning o'sishi

467,2  
ming so'mga

108,2 %

### O'sish sur'ati

2023- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2924,4** ming so'mga yetdi.

2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati **108,2 %** ni tashkil etdi.

### Taqqoslash uchun:

2022- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **2457,2** ming so'mni tashkil etgan.

2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati **114,6 %** da qayd etilgan.